larimiz natijasida kasbiy ta'limga oid elektron resurslar majmuasini shakllantirish va amaliyotga joriy etishning quyidagi bosqichlari taklif etildi:

▪elektron resurslar majmuasini shakllantirishning birinchi bosqichida matnli, audio, video, animatsiyali axborotlarning elektron versiyalari ishlab chiqiladi;

▪ikkinchi bosqichda yaratilgan majmua resurslarini joylashtirish uchun dasturiy platforma ishlab chiqiladi;

▪uchinchi bosqichda elektron resurslar majmuasi yaratilib, undan foydalanishning masofali yoki aralash-an'anaviy va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari faqatgina ma'lum bir sohada mutaxassis tayyorlash bilangina cheklanib qolmasdan, fanlararo integratsiya asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatini aniqlash, uni rivojlantirish va ro'yobga chiqarish bilan ham shug'ullanishi shart. Talabalar ta'limiy tadqiqotlar jarayonida va ta'lim amaliyotida elektron axborot ta'lim muhiti kengligi va xilma-xilligi nazarda tutilsa, bunga har xil kasbiy toifadagi pedagoglarni o'rgatish zarur bo'ladi.

Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning obyektiv murakkabligi, loyihalash jarayonida o'qituvchining metodik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus ishlab chiqiladigan dasturda hisobga olinishi lozim. Amaliyot ko'rsatdiki, elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish qator omillarga bog'liq. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi, elektron ta'lim resurslari, texnologik yondashuvlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-qarori. www.lex.uz.

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 21-iyundagi qarori. www.lex.uz.

(3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-qarori. www.lex.uz.

(4). Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60 p.

(5). Eshquvvatov U.A. Talabalarning muhandislik kasbiga oid kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Monografiya, T., «Lesson Press», 2022, 146-bet.

(6). Eshquvvatov U.A. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi. Pedagogik mahorat. 1/2023, 181–184-betlar.

(7). Eshquvvatov U.A. Talabalarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatga tayyorlash. "Ilm sarchashmalari", 2/2023, 80–83-betlar.

(8). Eshquvvatov U.A. Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. "Ta'lim, fan va innovatsiya", 2022, 3-son, 120–124-betlar.

(9). Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma, T., "Noshir". 2009, 368-bet.

(10). Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.,"Moliya", 2003, 192-bet.

(11). Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовка преподавателей для профессиональной подготовки учащихся "Сов. педагогика", Москва, 1985, № 2, с. 54–57.

(12). Авазбоев А.И. Совершенствование подготовки учителей трудового и профессионального обучения на основе интеграции содержания учебных предметов. Автореф. канд. пед. наук, Т., 2001, 21 с.

Kosimova Nargiza Dilmuratovna (Universitet of economics and pedagogic "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi professori, p.f.n., dotsent; kasimova nargiza0707@gmail.com)

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KOMPLAYENS VA UNING MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muvofiqlikning ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ta'lim jarayonining samarali o'tishini ta'minlashda me'yor va standartlarga rioya qilish yoki ularga rioya qilish asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada turli xil muvofiqlik mexanizmlari, ta'lim muassasalarini tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarning umumiy ko'rinishi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, komplayens, zamonaviy ta'lim, pedagogik faoliyat, munosabat, muomala, kommunikativ kompetensiya.*

КОМПЛАЕНС И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность комплаенса как инструмента для повышения качества образования. Комплаенс, или соблюдение норм и стандартов, играет ключевую роль в обеспечении эффективного образовательного процесса. А также, в статье анализируются различные механизмы комплаенса, обзор законов и норм, регулирующих образовательные учреждения, и их влияние на качество образования.*

Ключевые слова: *качество образования, соответствие, современное образование, педагогическая деятельность, отношения, поведение, коммуникативная компетенция.*

COMPLIANCE AND ITS MECHANISMS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Annotation. *This article discusses the importance of compliance as a tool for improving the quality of education. Compliance, or adherence to norms and standards, plays a key role in ensuring an effective educational process. Also, the article analyzes various compliance mechanisms, an overview of laws and regulations governing educational institutions, and their impact on the quality of education.*

Key words: *quality of education, compliance, modern education, pedagogical activity, attitude, behavior, kommunicative competence.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy nufuzini yanada oshirish maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining yangi nashri [1] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni [2] qabul qilindi. Qonun va farmon hujjatlari doirasida ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish, yuqori malakali intellektual, kreativ fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish va boshqa vazifalarga yo‘naltirilgan ta’lim sohasidagi ustuvor vazifalar belgilandi. Zero, ta’lim sifatini oshirish uchun komplayens prinsiplarini joriy etish, ta’lim muassasalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har bir yurtning kelajagi, istiqboli ma’lum jihatdan mamlakatdagi ta’lim tizimining eng muqobil usullari bilan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog‘liq. Shu munosabat bilan, zamonaviy ta’limda ilg‘or uslublarga murojaat etish, o‘quvchi, talaba shaxsi faolligiga asosiy e’tiborni qaratishda o‘qituvchi komplayensi ta’lim sifatini oshirishda yuksak natijaga erishishi aniq. Maqolaning mazmuni ham aynan ta’limdagi innovatsion yo‘nalishga qaratilgan yosh o‘qituvchilarda “komplayens”ni shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish xususida fikr yuritiladi.

“Komplayens” so‘zi (ingl. so‘zdan “complianse”– muvofiqlik, rozilik, kelishuv) ma’nosini bildiradi. Komplayens ilk marotaba 1906-yilda AQSH sog‘liqni saqlash va aholiga xizmat ko‘rsatish vazirligining faoliyatida qo‘llanilgan. Biroq komplayensni rivojlantirish uchun XX srning 60–70-yillardagi turli sohalarda, xususan, korrupsiya, soliq murojaatlari orqali natija olingan [3]. Komplayens munosabatlarini rivojlantirish bir necha saosiy elumentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Standartlarni belgilash:
▪ta’lim sohasidagi milliy va xalqaro standartlarga muvofiqlik;
▪oliy ta’lim muassasalari uchun akkreditatsiya talablari.
2. Ta’lim jarayonini nazorat qilish;
▪dasturlar va kurslarning sifati;
▪ustozlar va talabalarning faoliyatini baholash.
3. Trening va rivojlanish:
▪ustoz va yosh o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etish;
▪talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish.
4. Moliyaviy va resurslarni boshqarish:
▪talabalar, ustozlar va boshqa manfaatdor tomonlardan fikr olish;
▪talabalar uchun zamonaviy ta’lim vositalarini ta’minlash.
5. Fikr va takliflarni tinglash:
▪talabalar, ustozlar va boshqa manfaatdor tomonlardan fikr olish;
▪sifatni oshirish uchun takliflar qabul qilish, fidbek olish.
6. Ta’lim samaradorligi baholash:
▪talabalarning natijalarini tahlil qilish;
▪ovoz berish va baholash tizimini joriy etish.
7. Mas’uliyat va hisobot berish:

▪tashkilotning ichki va tashqi hisobotlarini tayyorlash;

▪komplayens prinsiplariga rioya qilish uchun mas'ul shaxslarni belgilash.

Zero, yosh o'qituvchilarda komplayensning shakllanishida uning ruhiy kechinmalari yoki hissiyoti insonlar hayotida asosiy rol o'ynaydi hamda ularning butun psixik faoliyatiga singib ketadi. Fiziologik jihatdan tahlil qilganimizda, komplayens ichki psixik holatning yuzaga kelishida boshqa hodisalar singari, miyaning asosiy funksiyasidir. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zining bilimi va tajribasi asosida o'quvchi yoki talaba shaxsini o'ziga ishontira olsa, bilimini yetkazib bera olsa, u, albatta, natijaga erishadi. Pedagogik faoliyatida komplayensni muhimligi shundaki, bu jarayon uning hissiy kechinmalari bilan bog'liq va bu hodisa bir kishidan ikkinchisiga tez va osonlik bilan o'tadi. Buning sabablaridan biri shuki, kechinmalar har xil tashqi ifodali noverbal harakatlarga ega: mimika, imo-oshora, xatti-harakatlar. Biror kishining tabassumi ham, yuzidagi ifodali qarashlari ham, jiddiy kayfiyati ham, odatda, boshqalarga "yuqadi". Masalan, o'quvchilarga o'qituvchi ta'sir etishi har bir darsda bilinadi. Agar o'qituvchi darsga yomon kayfiyatda, agressiv holatda kirib kelsa, bu ahvolni o'quvchilardan yashira olmasa, ular ham juda hayajonga tushadilar, asabiylashadilar, natijada o'quvchilar endi o'zlarini tegishlicha o'quv faoliyatiga diqqatini jalb eta olmaydilar. Agar o'qituvchi xotirjam hissi bilan emotsional ko'tarinki ruhda darsni boshlasa, bu jarayon o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu samarali o'quv mashg'ulot davomida ilmiy axborotlar yig'indisini berishdagina emas, balki ularda muayyan dunyoqarashni tarbiyalash mexanizmi ham samarali natija beradi.

O'zaro muloqotga kirishish jarayonida suhbatdoshlarni o'zaro tushunishga erishish subyektlarni bir-biri bilan ishonchli muloqotni o'rnatishda zamin vazifasini hamda komplayensni vujudga keltiradi. Komplayens ta'lim jarayonida huquqiy, etik va standartlarga rioya qilishni ta'minlash uchun muhim qoidalar mavjud:

1. Etik kodeksni o'rnatish. Talabalarga tashkilotning etik kodeksi, ta'lim muassasasining ichki tartib, odob-axloq qoidalariga urgatish.

2. Huquqiy talablar bo'yicha trening mashgulotlari. Talablar uchun huquqiy normalar, akkreditatsiya va lisenziyalash jarayonlari bo'yicha seminra treninglar tashkil etish.

3. Sifatni baxolash tizimlari. Talabalarga sifatni baholashning metodlari va standartlari haqida ma'lumot berish.

4. Fikr olish mexanizmlari. Talabalarni fikr bildirish va takliflar berish uchun anonim mexanizmlardan foydalanishga o'rgatish.

Tashkilot madaniyati. Talabalarga komplayens madaniyati va tashkilotning etik prinsiplari haqida o'qitish.

Tahlil va natijalar. Ushbu mexanizmlar orqali ta'lim sifatini ta'minlash, talabalarning bilim, ko'nikma va kommunikativ kompetensiyasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Rus olimlarining tahlillari quyidagilarni aniqlash imkonini beradi. M.V.Sturikovaning ta'rificha, kommunikativ kompetensiya – bu "ta'lim oluvchining har qanday so'z va iboralarni idrok etish qobiliyati va o'zining bilim, ko'nikma, amaldagi til me'yorlari, shaxsiy fazilatlari, nolisoniy vositalarni qo'llash uquvi asosida orttirgan amaliy tajribalarini oshirishi haqida ta'kidlagan. Shuningdek, nutqiy muloqot orqali makon, turli vaziyatlarda muloqot va axloqiy munosabatlar aks etgan o'z nutqini yaratishga qodirligi, mavzu, unda maqsad, vazifalarning ahamiyati qanchalik muhimligini anglagan holda, ma'lum bir natijalarga erishsishdir", deya izohlagan [4].

"Kommunikativ kompetensiya" atamasining ma'nosiga berilgan ushbu ta'rif tadqiqotchilarga tanish bo'lganligi uchun undan o'z ilmiy faoliyatlarida to'laqonli foydalanmoqdalar. Raqamli ta'limning paydo bo'lishi va uning negizida masofaviy ta'limning yaratilishi hamda OTMlarning ommaviy tarzda raqamli ta'limga o'tish jarayoni keskin tezlashdi. Bu esa raqamli iqtisodiyotning asosiy vakolatlarini yanada kengayishiga imkon bermoqda. Zero, professor-o'qituvchilarning diqqat-e'tibori ham ushbu rasmiy atama matniga ham e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Pedagogik faoliyatda talabalarning o'quv jarayonidagi muloqotlarida ham ma'lum bir o'ziga xos o'zgarishlar, xususiyatlar yuzaga keldiki, ushbu xususiyatlarning o'qituvchilar tomonidan hisobga olinishini taqozo etmoqda. Univesitet Iqtisodiyot va Pedagogika fakulteti talabalari o'quv rejasiga muvofiq keng ko'lamda ilmiy fanlarni egallab borishlari bilan bir qatorda, ushbu fanlarning ilmiy asoslari, toifa (kategoriya)lari va terminologiyasini ham o'zlashtirib boradilar. Talabalar amaliy mashg'ulotlar, ilmiy konferensiyalar, ta'limiy tadbirlar, test sinovlari yoki boshqa og'zaki nazoratlar vaqtida (masalan, fanlarni kelib chiqish tarixini o'rganishda), hamkasblari bilan bo'lgan o'zaro muloqotda kasbiy ilmiy atamalardan unumli foydalangan holda aloqa o'rnatadilar.

Ilgari pedagogik faoliyatda subyektlar o‘rtasidagi kommunikativ muloqot masalalari shunchaki, odatdagi oddiy masaladek qaralgan. Hozirda esa professor-o‘qituvchilardan o‘quv jarayonining dastlabki kunlaridanoq talabalarda kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu ikki asosiy – ilmiy va kasbiy-maishiy sathlarda amalga oshirish talab etilmoqda.

Ushbu holatlarda professor-o‘qituvchining asosiy vazifasi talabaga kommunikativ kasbiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyani to‘g‘ri shakllantiruvchi asosiy omil hamda mutaxassisni o‘z kasbining egasi sifatida tayyorlash sharti ekanligini tushuntirishdan iboratdir.

Birinchi guruh o‘qituvchilari o‘zlarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish yo‘lida turibdi. Ikkinchi guruh talabalarini o‘qitishning nazariy tarkibini noverbal va verbal muloqot masalalari, uning darajalari va vositalarini tahlil qilish kerakligini ko‘rsatdi.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda kishilarning shaxslararo muloqot jarayonida o‘zaro ta’siriy jihatlari, samarali muloqot qilish shartlari va to‘siqlari, o‘qitish jarayonida va pedagogik faoliyatda nizoli va nizosiz muloqotlar, nizolarni vaziyatlarni boshqarish, o‘qituvchi va o‘quchilar bilan o‘zaro munosabatlarini ko‘rib, tahlil qildik, pedagogik muloqot xususiyatlariga e’tibor qaratdik.

Amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlarni bajarish jarayonida fan nazariyasini o‘rganish muloqot masalalarini hal qilish bilan birgalikda olib borildi, muloqot treninglari o‘tkazildi. Birinchi guruhni o‘qitishda boshqa muloqot usullari bilan bir qatorda, samarali “o‘quvchi o‘qituvchi rolida” uslubiy usul ham qo‘llanildi. Ikkita talabalardan iborat smena jamoasi (o‘qituvchi hamkorligida) hamkasblari bilan dars loyihasini ishlab chiqdi, so‘ngra talabalar o‘zlari tuzgan dars loyihasi asosida dars o‘tkazdilar. Darsning yakuniy–refleksiya bosqichida, ayniqsa, muloqot sohasi bundan mustasno bo‘lmagan holda, bahs-munozara bilan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar, yutuqlar tahlil qilindi.

Bunda biz birinchi guruh talabalarining amaliyotda talabalarga dars berish jarayoni va o‘quvchilar bilan kasbiy muloqotda duch kelgan muloqot muammolarini ham ko‘rib chiqdik. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun o‘qituvchi nafaqat pedagogik o‘zaro ta’sirning asosiy usullari va turlarini bilishi, balki o‘quvchi yoshining psixologik-pedagogik xususiyatlarini, shaxsning motivatsion sohasini rivojlantirish qonuniyatlarini ham bilishi lozim bo‘ladi.

Ikkinchi guruh talabalarini o‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy sabab maqsadni yetarli darajada puxta ishlab chiqmaslik va aniq qo‘ya bilmaslikdir. Yosh o‘qituvchilar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha talabalar bilan mashg‘ulotlarni loyihalashda muloqot sohasida aniq maqsadni qoyishni bilmaydilar. Barcha o‘quvchilarni kommunikativ jarayonga jalb qilish, uning texnologiyalari va foydalanish metodikasi bo‘yicha yetarli bilim, konikma va malakalarga ega emaslar.

Shu narsa aniqki, agar darsning kommunikativ maqsadlari aniqlanmagan bo‘lsa, ularga erishish refleksiyasi ham amalga oshmaydi. Shuningdek, agar talabalar muloqot ko‘nikmalarini egallashda nazoratni susaytirsalar, ularga kommunikativ kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirish mezonlari haqida batafsil ma’lumot berilmasa, ular o‘rtasida kasbiy muloqot orqali tajriba orttirish jarayoni qiyin kechishi aniqlandi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va amalga oshirish bo‘yicha ko‘nikmalarni takomillashtirish masalalari har ikkala guruh o‘qituvchilari uchun dolzarb bo‘ldi.

Birinchi yo‘nalish – o‘qituvchilarni talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning yangi usullari bilan tanishtirish. Masalan, darsning videoyozuvidan foydalanish va talabalar bilan muloqot sifati haqida bahs-munozaralar uyushtirish yoki talabalar tomonidan ma’lum bir darsning kommunikativ maqsadlarini belgilash (ma’viy tadbir, konferensiyada ishtirok etish), ushbu maqsadlarga erishish samaradorligini baholash; badiiy asarlardagi muloqot turlarini tahlil qilish.

Ikkinchi yo‘nalish – amaliyot kundaligini yuritish. Kundalikda pedagog xodimlar va o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlari, muloqotdagi qiyinchiliklar, ularni amaliyot rahbari bilan muhokamasi, muloqotdagi qiyinchiliklarning xususiyatlari va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda ekskursiyalar va boshqa ta’lim tadbirlaridan foydalanish yakuniy hisobotda izchillik bilan qayd etib boriladi.

Ijodiy topshiriqlar, o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyati (individual va jamoaviy) talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda innovasion tajribani tarqatishga imkon berdi. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga tayyorgarlikning ikkinchi yo‘nalishi ham barcha o‘qituvchilarga aloqador va elektron ta’lim muloqotining xususiyatlarini tadqiq qilish masalalaridan iborat edi.

Universitetda elektron axborot ta’lim muhiti mavjud bo‘lishi hamda talabalarni kompyuter yordamida o‘qitish odat tusiga kirganiga qaramay, o‘qituvchilar uchun aralash va masofaviy ta’limga o‘tish yangi pedagogik haqiqatga aylandi.

Ta'lim jarayonida optimal o'zaro ta'sir usullarini izlash va yangi sharoitlarda shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirishda muayyan holatlar – o'qituvchilar oldida yuzaga keladigan muammolarni bahs-munozara paytida aniq keyslar muhokamasini amalga oshirdik.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarni talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga tayyorlash boshlang'ich pedagogik tajribaga qarab farqlanadi, u an'anaviy kasbiy muloqot masalalari bilan bir qatorda, elektron ta'lim aloqalari masalalarini ham o'z ichiga oladi, interfaol tarzda olib boriladi. Ta'lim jarayonida tinglovchilar o'zlarida kommunikativ muloqot usullari va texnikasini o'zlarida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Umid qilamizki, bizning tajribamiz hamkasblar uchun foydadadn xoli bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637.

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-farmoni.

(3). Катышева И.Ю. Опыт организации комплаенс – контроля в рамках СВК. Основные принципы и стандарты комплаенс-контроля. Доклад на заседании. 2005.

(4).М.В.Стурикова.Коммуникативная компетенция: к вопросу о дефиниции и структуре. Научн. статья. Инновационные проекты и программы в образовании. Научн. жур., № 6, 2015.

(5). www.sciyencye-education.ru.

Kudiyarova Gauxar Iyambergenovna (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali mustaqil izlanuvchisi)

UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV KO'NIKMASINI SELF-MENEJMENT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmasini self -menejment yondashuvi asosida rivojlantirish metodologiyasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *maktab rahbarlari, boshqaruv ko'nikmasi, self-menejment, konseptual metodologiya, natijadaorlik.*

Кудиярова Гаухар Иямбергеновна (Независимый соискатель Каракалпакского филиала Национального института педагогики имени Т.Н.Кари-Ниязи)

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ СЕЛФ-МЕНЕДЖМЕНТА

Аннотация. *В данной стате освещена методология развития управленческих навыков руководителей общеобразовательных школ на основе подхода селф-менеджмента.*

Ключевые слова: *руководители школ, управленческие навыки, селф-менеджмент, концептуалная методология, результативность.*

Kudiyarova Gauxar Iyambergenovna (Independent Researcher, Karakalpak Branch of the National Institute of Pedagogy named after T.N.Qori-Niyoziy)

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE MANAGEMENT SKILLS OF GENERAL EDUCATION SCHOOL LEADERS BASED ON SELF-MANAGEMENT

Annotation. *This article highlights the methodology for developing the management skills of general education school leaders based on the self-management approach.*

Keywords: *school leaders, management skills, self-management, conceptual methodology, effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonida rahbar kadrlardan muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki shaxsiy sifatlarini oshirish, shaxsiy kompetentlilik darajasini rivojlantirish ham talab etilmoqda. Bu borada zamonaviy yondashuv sifatida "Self-menejment"dan foydalanish mumkin. Self-menejment rahbar kadrlarning vaqti, resurslari, qobiliyatlari, maqsadlari va boshqa shu kabi jihatlarini samarali boshqara olishiga xizmat qiladi. Self-menejment nafaqat kasbiy sohada, balki shaxsiy hayotda ham katta ustunlik beradi. Uning yordamida stressli holatlarni kamaytirish, shaxsiy intizomni kuchaytirish va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Aslida, bu faqat rahbar kadrlar uchun emas, balki barcha insonlar uchun qo'llanilishi mumkin.

Rahbar kadrlar kasbiy faoliyatida har kun ko'plab mas'uliyatli vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi. Bu borada eng asosiy muammo vaqtni samarali boshqara olish va maqsadlariga erishish uchun to'g'ri yo'lni tanlashdir. Ayrim rahbarlar tabiiy ravishda va tug'ma qobiliyati asosida o'z vaqti, resurslarini yaxshi boshqara oladi, boshqalar esa bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun maxsus bilim va ko'nikmalarni o'z-